

## USING AUTHENTIC MATERIALS TO IMPROVE LISTENING SKILLS

**Abdullaev Amirbek Boxodir ugli**

*Filologiya va xorijiy tillar: ingliz tili*  
*Diplomat University, Toshkent, O'zbekiston*

+998 90 912 01 41

[abdullayevamirbek2024@gmail.com](mailto:abdullayevamirbek2024@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada chet tilini o'qitish jarayonida autentik materiallardan foydalanishning tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, podkastlar, yangiliklar dasturlari, filmlar, intervyular, videobloglar va boshqa autentik materiallardan foydalanish til o'rganuvchilarning real nutqni tushunish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida autentik materiallarning tinglab tushunish, lug'at boyligini kengaytirish, talaffuzni anglash va motivatsiyani oshirishdagi o'rnini o'rganildi. Natijalar autentik materiallardan foydalanish o'quvchilarning eshitib tushunish darajasini sezilarli ravishda yaxshilashini ko'rsatdi.*

**Kalit so'zlar:** *autentik materiallar, tinglab tushunish, chet tili ta'limi, kommunikativ kompetensiya, motivatsiya, podkastlar, audio materiallar, til o'rganish.*

**Abstract:** *This article analyzes the importance of using authentic materials in developing listening skills in foreign language learning. In modern education, the development of communicative competence is considered one of the primary goals of language instruction. Therefore, the use of authentic resources such as podcasts, news broadcasts, movies, interviews, and video blogs help learners improve their ability to understand real-life spoken language. The study investigates the impact of authentic materials on listening comprehension, vocabulary development, pronunciation awareness, and learner motivation. The findings demonstrate that authentic materials significantly enhance students' listening performance and increase their confidence in understanding natural speech.*

**Keywords:** *authentic materials, listening comprehension, foreign language education, communicative competence, motivation, podcasts, audio materials, language learning.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается значение использования аутентичных материалов для развития навыков аудирования при обучении иностранным языкам. В современных условиях одной из основных целей языкового образования является формирование коммуникативной компетенции обучающихся. Использование подкастов, новостных программ, фильмов,*

*интервью, видеоблогов и других аутентичных ресурсов способствует развитию способности понимать естественную речь носителей языка. В исследовании анализируется влияние аутентичных материалов на понимание устной речи, расширение словарного запаса, восприятие произношения и повышение мотивации учащихся. Результаты показывают, что применение аутентичных материалов положительно влияет на развитие навыков аудирования и способствует более эффективно овладению иностранным языком.*

**Ключевые слова:** аутентичные материалы, аудирование, обучение иностранным языкам, коммуникативная компетенция, мотивация, подкасты, аудиоматериалы, изучение языка.

## KIRISH

Globalashuv jarayonining jadallashuvi va xalqaro hamkorlikning kengayishi chet tillarini mukammal o'rganishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Chet tilini egallash jarayonida tinglab tushunish ko'nikmasi muhim o'rin egallaydi, chunki inson kundalik hayotda axborotning katta qismini aynan eshitish orqali qabul qiladi. Til o'rganuvchi shaxsning muloqotda muvaffaqiyat qozonishi uning eshitilgan ma'lumotni to'g'ri anglay olishi bilan chambarchas bog'liq.

An'anaviy darsliklarda berilgan audio materiallar ko'pincha soddalashtirilgan bo'lib, real hayotdagi nutqning barcha xususiyatlarini aks ettirmaydi. Natijada o'quvchilar dars jarayonida muvaffaqiyatli natijalarga erishgan bo'lsalar ham, haqiqiy kommunikativ vaziyatlarda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Shu sababli autentik materiallardan foydalanish zamonaviy til ta'limining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Autentik materiallar deganda ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan tabiiy kommunikatsiya uchun yaratilgan audio, video yoki matnli manbalar tushuniladi. Ular o'quvchilarga real nutq tezligi, talaffuz, intonatsiya va madaniy xususiyatlarni o'rganish imkonini beradi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi autentik materiallarning tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

## TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotda nazariy va amaliy metodlardan foydalanishni ko'zda tutadi. Avvalo, autentik materiallar va tinglab tushunish ko'nikmalariga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, chet tili o'rganuvchilarining tinglab tushunish darajasini aniqlash maqsadida kuzatish va tajriba metodlari qo'llanildi.

Tadqiqotda 40 nafar talaba ishtirok etdi. Ular teng miqdorda nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhi an'anaviy audio materiallar bilan shug'ullangan bo'lsa, tajriba guruhi podkastlar, yangiliklar eshittirishlari, filmlar va intervyular asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda qatnashdi.

Tajriba uch oy davomida olib borildi. Mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmalari muntazam ravishda testlar, suhbatlar va amaliy topshiriqlar orqali baholab borildi. Olingan natijalar qiyosiy tahlil usuli yordamida o'rganildi.

### NATIJALAR

Tadqiqot davomida talabalar bilan muntazam ravishda oraliq nazorat ishlari va kuzatishlar olib borildi. Dastlabki bosqichda har ikkala guruh vakillarida tinglab tushunish bilan bog'liq o'xshash muammolar kuzatildi. Xususan, tez sur'atda aytilgan nutqni anglash, notanish so'zlarning ma'nosini aniqlash hamda turli aksentlarga moslashishda qiyinchiliklar mavjud edi.

Tajriba jarayonida autentik materiallar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar natijasida talabalarning ushbu qiyinchiliklarni bosqichma-bosqich yengib borayotgani aniqlandi. Ayniqsa, podkastlar va intervyular bilan muntazam ishlash o'quvchilarning eshitilgan ma'lumotni tahlil qilish va asosiy g'oyani ajratib olish ko'nikmalarini rivojlantirdi.

Yakuniy baholash natijalari shuni ko'rsatdiki, autentik materiallardan foydalangan talabalar real kommunikativ vaziyatlarga yaqin bo'lgan topshiriqlarda ancha yuqori natijalarni qayd etdilar. Ular nafaqat eshitilgan matn mazmunini tushunishda, balki ma'ruzachi fikrini aniqlash, muhim ma'lumotlarni ajratib olish va kontekst orqali yangi so'zlarning ma'nosini anglashda ham faolroq ishtirok etdilar. Olingan ma'lumotlarning qiyosiy tahlili quyidagi jadvalda keltirilgan.

jadval 1

Ko'rsatkich	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Boshlang'ich test natijasi	61%	72%
Yakuniy test natijasi	45%	56%
Umumiy o'sish ko'rsatkichi	23%	36%
Kontekst orqali ma'noni aniqlash	65%	88%
Turli aksentlarni tushunish	54%	65%
O'quv motivatsiyasi darajasi	71%	83%

Jadval ma'lumotlarining tahlili nazorat va tajriba guruhlarini o'rtasida ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Boshlang'ich test natijalarida nazorat guruhi 61 foiz, tajriba guruhi esa 72 foiz natija qayd etdi. Yakuniy test natijalariga ko'ra, nazorat guruhi 45 foiz, tajriba guruhi esa 56 foiz ko'rsatkichga ega bo'ldi.

Kontekst orqali ma'noni aniqlash bo'yicha tajriba guruhi 88 foiz natija ko'rsatib, nazorat guruhining 65 foizlik natijasidan yuqori ko'rsatkichni qayd etdi. Turli aksentlarni tushunish darajasi ham tajriba guruhida 65 foizni tashkil etib, nazorat guruhidagi 54 foizlik natijadan yuqori bo'ldi. O'quv motivatsiyasi darajasi bo'yicha ham tajriba guruhi 83 foiz natijaga erishgan bo'lsa, nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich 71 foizni tashkil etdi.

Olingan natijalar autentik materiallardan foydalanish talabalarning ayrim tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Ayniqsa, kontekst orqali ma'noni anglash va turli talaffuz xususiyatlarini tushunish bilan bog'liq ko'rsatkichlarda ijobiy natijalar kuzatildi.

### **MUHOKAMA**

Olingan natijalar autentik materiallarning tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. An'anaviy darsliklarda beriladigan audio yozuvlar ko'pincha ta'limiy maqsadlarda soddalashtirilgan bo'lib, ularda real nutqning barcha jihatlari aks etmaydi. Autentik materiallarda esa tabiiy tezlik, turli talaffuz variantlari, qisqartmalar va kundalik muloqot elementlari mavjud bo'lib, bu o'quvchilarni haqiqiy kommunikativ vaziyatlarga tayyorlaydi.

Tajriba davomida talabalar faqat tinglash qobiliyatini emas, balki boshqa til kompetensiyalarini ham rivojlantirdilar. Xususan, ular yangi iboralarni o'zlashtirish, talaffuzdagi farqlarni sezish va muloqot jarayonida tezroq javob qaytarish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa tinglab tushunishning boshqa nutq faoliyati turlari bilan uzviy bog'liqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, autentik materiallarning motivatsion jihati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Talabalar real hayotda qo'llanilayotgan til namunalarini o'rganish orqali chet tilining amaliy qiymatini chuqurroq anglay boshlaydilar. Natijada o'quv jarayoniga nisbatan mas'uliyat va qiziqish ortadi.

### **XULOSA**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, autentik materiallardan tizimli ravishda foydalanish tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Podkastlar, filmlar, intervyular va yangiliklar dasturlari kabi manbalar o'quvchilarga tabiiy til muhiti bilan tanishish imkonini beradi hamda ularning real nutqni qabul qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Shuningdek, autentik materiallar lug'at boyligini kengaytirish, talaffuz xususiyatlarini anglash va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli zamonaviy chet tili ta'limida bunday manbalardan muntazam foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR**

1. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London: Pearson Education, 2015.
2. Richards J.C. Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
3. Rost M. Teaching and Researching Listening. – New York: Routledge, 2011.
4. Gilmore A. Authentic Materials and Authenticity in Foreign Language Learning // Language Teaching. – 2007. – Vol. 40. – No. 2. – P. 97–118.
5. Nunan D. Practical English Language Teaching. – New York: McGraw-Hill, 2003.
6. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2007.